qulay sharoitlar yaratadi. Shuningdek, bu turistik obyektlar hududning etnologik, arxeologik va antropologik jihatlarini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni kompleks tarzda tadqiq etish zarurati mavjud.

Farg‘ona vodiysidagi ziyoratgohlarning boy tarixi, arxitekturaviy va diniy ahamiyati, ularning muqaddas ob’ektlar sifatida xalq orasida qadrlanishi, hududga mahalliy va xorijiy turistlar oqimini jalb etishda muhim omil hisoblanadi.Farg‘ona, Marg‘ilon, Rishton, Namangan, Andijon, Jalolquduq, Pop va Quva tumanlaridagi ziyoratgohlar nafaqat diniy-ma’naviy markaz, balki ekologik jihatdan noyob hududlar bilan uyg‘unlashgan turistik maskanlar bo‘lib, ularni kompleks tarzda rivojlantirish mintaqaning turizm infratuzilmasini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va mahalliy aholi bandligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmining rivoji hudud iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shadi: mehmonxona, mehmon uylar, umumiy ovqatlantirish, transport va qo‘shimcha xizmatlar sohalari rivojlanadi; kichik biznes va hunarmandchilik kengayadi; mahalliy byudjet daromadlari oshadi. Shu bilan birga, turizmning barqaror rivoji ekologik va madaniy muhitni saqlashni ta’minlaydi, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiladi va madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlarining ilmiy-geografik va tarixiy jihatdan o‘rganilishi, ularni kompleks turizm yo‘nalishlari bilan bog‘lash, qo‘shimcha xizmatlar va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali hududning ichki va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish, barqaror turizmni ta’minlash va mintaqaning madaniy-merosini kelajak avlodlar uchun saqlash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulahatov N, G‘oziyev T. Shohimardon.-T.: Yangi asr avlodi, 2010.-592 b.
2. Abdulahatov N., Zohidov F. Farg‘ona tumani tarixi.-Farg‘on, 2013.-307 b.
3. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология. Ўқув қўлланма. Фарғона. 2021
4. Бойтураев О.У. Фарғона водийсида туризм соҳаси рақобатбардошлигини ошириш имкониятлари. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Фарғона, 2023.
5. Имом Зарнужий. Илм олиш сирлари / Таржимогс Зокиржон Шарифов. Т Моваройннаҳр, 2004. - Б. 60
6. Ислом энцикиопедия...-Б. 26
7. https://lex.uz/docs/5283956

FARG‘ONA VILOYATIDAGI SAKRAL LANDSHAFTLARDA ZIYORATCHILAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHNI HUDUDIY TASHKIL ETISH

Saydaliyeva Lazokatxon Mahammad qizi
Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sayidaliyevanazokat@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishning hududiy va tibbiy-geografik jihatlari yoritilgan.. Sakral obyektlarning hududiy joylashuvi, ziyoratchilar oqimi, sanitariya-gigiyena infratuzilmasining holati, ichimlik suvi ta’minoti hamda ziyoratchilar uchun yaratilgan xizmat ko‘rsatish sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Farg‘ona viloyatida 321 dan ortiq qadamjo va mozor ko‘rinishidagi ziyoratgohlar hamda 100 ga yaqin tarixiy-madaniy va arxeologik obyektlar mavjudligi aniqlangan. 2024-yilda viloyat sakral obyektlariga tashrif buyurgan mahalliy ziyoratchilar soni 215 ming kishini tashkil etgan. 20 dan ortiq ziyoratgohda o‘tkazilgan kuzatuvlar va 200 nafar respondent ishtirokidagi anketa-so‘rovnoma natijalari asosida sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash, ichimlik suvi*

sifatini muntazam nazorat qilish, funksional zonalashtirish, sanitariya-epidemiologik monitoringni joriy etish hamda sakral obyektlarning yagona axborot bazasini yaratish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *sakral landshaft, sakral obyekt, ziyoratgoh, ziyoratchilar salomatligi, tibbiy-geografik baholash, sanitariya-gigiyena, ichimlik suvi, hududiy tashkil etish, ziyorat turizmi, monitoring.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ziyorat turizmining rivojlanishi sakral obyektlarga tashrif buyuruvchilar sonining ortishiga olib kelishi bilan birga, ushbu hududlarda sanitariya-gigiyena, ekologik xavfsizlik, transport, xizmat ko‘rsatish va tibbiy yordam tizimlarini takomillashtirishni ham talab etadi.

Sakral landshaftlar nafaqat diniy va ma’naviy ahamiyatga ega hududlar, balki ziyorat, rekreatsiya, ma’naviy-ruhiy tiklanish va ayrim hollarda xalq tabobati bilan bog‘liq faoliyatlar amalga oshiriladigan hududiy majmualardir. Shu sababli ulardan foydalanishni tashkil etishda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish masalasi alohida tibbiy-geografik ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona viloyati sakral obyektlarning soni va funksional xilma-xilligi bilan O‘zbekiston hududlari orasida o‘ziga xos mavqega ega. Tadqiqotlar natijasida viloyatda 321 dan ortiq qadamjo va mozor ko‘rinishidagi ziyoratgohlar, shuningdek, 100 ga yaqin tarixiy-madaniy va arxeologik obyektlar sakral obyektlar majmuasini tashkil etishi aniqlangan.

Shu nuqtayi nazardan, Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishni hududiy tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish masalasi, avvalo, hududning tabiiy-geografik sharoiti, sakral obyektlarning funksiyasi, ziyoratchilar oqimining miqdori va mavsumiyligi, sanitariya-gigiyena infratuzilmasi hamda ekologik holat bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son qarorida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Mazkur hujjatda ziyorat obyektlari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarni shakllantirish, turizm tashkilotlari va tegishli jamoatchilik hamda sanitariya-ekologik tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Farg‘ona viloyatida ziyoratchilar oqimining hududiy taqsimlanishi ham bir xil emas. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha jami ziyoratchilar soni 215 ming kishini tashkil etgan. Eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona tumanida – 35 ming, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida – 25 mingdan, Buvayda tumanida esa 20 ming kishini tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar ziyoratchilar oqimi yuqori bo‘lgan hududlarda sanitariya-gigiyena va tibbiy xizmatlarni hududiy jihatdan ustuvor tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ziyoratchilar oqimi yoz oylarida ortishi natijasida ushbu davrda sanitariya-gigiyena infratuzilmasiga bo‘lgan talab ham oshadi.

Mazkur maqolada hududiy tahlil, geografik taqqoslash, kuzatuv, anketa-so‘rovnoma, statistik tahlil va kartografik usullardan foydalanilgan. Shuningdek, sakral obyektlarning joylashuvi va funksional xususiyatlarini tahlil qilishda GIS texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Muhokama va natijalar. Ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishda sakral obyektlarning sanitariya-gigiyenik holati muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

ziyoratgohlarda asosiy muammolardan biri ichimlik suvi ta’minoti bilan bog‘liq. Ayrim ziyoratgohlarda soy, buloq va quduqlardan foydalanilishi ushbu suv manbalarining muntazam laboratoriya nazoratidan o‘tkazilishini talab qiladi.

Ichimlik suvining sifati ziyoratchilar salomatligi uchun eng muhim sanitariya-gigiyena omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sakral landshaftlardagi suv manbalarining kimyoviy va bakteriologik ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish, zarur hollarda dezinfeksiya tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur maqola doirasida Farg‘ona viloyatidagi 20 dan ortiq sakral obyektlarda iste’mol suvi va tuproq namunalarining organoleptik hamda bakteriologik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari sakral obyektlarda sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash va iste’mol suvi sifatini muntazam monitoring qilish zarurligini ko‘rsatgan.

Sakral obyektlarda sanitariya-gigiyena sharoitini yaxshilash faqat suv ta’minoti bilan cheklanmaydi. Hojatxonalar, chiqindi yig‘ish joylari, ovqatlanish shoxobchalari, transport vositalari uchun avtoturargohlar, tibbiy yordam punktlari va dam olish joylarining hududiy jihatdan to‘g‘ri joylashtirilishi ham muhimdir.

Farg‘ona viloyatida ziyoratchilar oqimining hududiy taqsimlanishi sanitariya-gigiyena tadbirlarini differensial tashkil etishni talab qiladi. Ziyoratchilar soni yuqori bo‘lgan hududlarda doimiy xizmat ko‘rsatish va sanitariya nazorati tizimi shakllantirilishi, mavsumiy va ziyoratchilar soni nisbatan kam bo‘lgan obyektlarda esa mavsumiy yoki ko‘chma xizmatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan, Farg‘ona tumanida 2024-yilda 35 ming nafar ziyoratchi qayd etilgan bo‘lib, bu viloyatdagi eng yuqori ko‘rsatkichdir. Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida 25 mingdan, Buvayda tumanida esa 20 ming nafar ziyoratchi tashrif buyurgan.

Shu asosda sakral obyektlarni ziyoratchilar oqimiga ko‘ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: 1) yuqori ziyoratchilar oqimiga ega obyektlar – doimiy sanitariya-gigiyena va tibbiy xizmat ko‘rsatishni talab qiladi; 2) o‘rtacha ziyoratchilar oqimiga ega obyektlar – davriy sanitariya nazorati va mavsumiy tibbiy xizmatlar tashkil etiladi; 3) mavsumiy va kam tashrif buyuriladigan obyektlar – ziyorat mavsumida ko‘chma tibbiy va sanitariya xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv mavjud resurslardan samarali foydalanish va ziyoratchilar xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi.

Ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishni hududiy tashkil etishning muhim yo‘nalishlaridan biri sakral obyektlar hududini funksional zonalarga ajratishdir. Tadqiqotda ziyorat va diniy amallar zonasi, dam olish va rekreatsiya zonasi hamda xizmat ko‘rsatish zonalarini ajratish taklif etilgan.

Ziyorat va diniy amallar zonasida ziyoratchilarning asosiy diniy faoliyati amalga oshiriladi. Ushbu hududda tozalikni ta’minlash, piyodalar harakatini tartibga solish va ortiqcha antropogen bosimni kamaytirish muhim.

Rekreatsiya zonasida dam olish joylari, soyabonlar, daraxtzorlar va boshqa rekreatsion obyektlar joylashtirilishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatish zonasida ovqatlanish, savdo, sanitariya-maishiy xizmatlar, avtoturargoh va zarur hollarda tibbiy yordam punktlari tashkil etilishi lozim.

Bunday funksional zonalashtirish ziyoratchilar oqimini boshqarish, antropogen yuklamani kamaytirish va sanitariya-gigiyena nazoratini samarali olib borish imkonini beradi.

Ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish masalasida ularning mavjud sharoitlardan qoniqish darajasini o‘rganish ham muhimdir. Shu maqsadda Farg‘ona viloyatidagi 20 dan ortiq ziyoratgohlarda 2024–2025-yillarda, ayniqsa ziyoratchilar ko‘p tashrif buyuradigan iyun–avgust oylarida anketa-so‘rovnomalar o‘tkazilgan. Tadqiqotda turli yosh va ijtimoiy guruhlarga mansub 200 nafar respondent qatnashgan.

So‘rovnoma natijalari ziyoratchilarning servis xizmati va sanitariya-gigiyena holatidan qoniqarsizligini ko‘rsatgan. Ayniqsa, ichimlik suvi ta’minoti va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining tartibsiz joylashuvi asosiy muammolar sifatida qayd etilgan.

Respondentlarning takliflari orasida tibbiyot punktlarini tashkil etish va iste’mol qilinadigan suvning kimyoviy tahlilini muntazam amalga oshirish zarurligi alohida qayd etilgan.

Bu natijalar ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishni hududiy tashkil etishda faqat turistik infratuzilmani rivojlantirish emas, balki tibbiy-sanitariya xizmatlarini ham hududiy rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishning quyidagi bosqichli hududiy modelini taklif etish mumkin.

Birinchi bosqich – pasportlashtirish va inventarizatsiya. Har bir sakral obyektning geografik joylashuvi, funksiyasi, ziyoratchilar oqimi, suv manbalari, sanitariya-gigiyena holati va infratuzilmasi haqidagi ma’lumotlarni yagona bazaga kiritish zarur.

Ikkinchi bosqich – funksional zonalashtirish. Ziyorat, rekreatsiya va xizmat ko‘rsatish zonalarini bir-biridan oqilona ajratish orqali sanitariya-gigiyena xavfsizligini oshirish mumkin.

Uchinchi bosqich – sanitariya-epidemiologik monitoring. Suv manbalarini muntazam laboratoriya tahlilidan o‘tkazish, ziyorat mavsumi oldidan profilaktik va dezinfeksiya tadbirlarini amalga oshirish zarur.

To‘rtinchi bosqich – tibbiy-sanitariya infratuzilmasini rivojlantirish. Ziyoratchilar oqimi yuqori bo‘lgan obyektlarda tibbiy yordam punktlari, sanitariya-maishiy obyektlar va sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash tizimini yaratish lozim.

Beshinchi bosqich – raqamli monitoring. Sakral obyektlarning joylashuvi, ziyoratchilar oqimi, sanitariya holati va infratuzilmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni web-GIS asosida yagona tizimga birlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday tizim hududiy rejalashtirish va monitoringni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu modelning asosiy maqsadi uchta yo‘nalishni uyg‘unlashtirishdan iborat: ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish, sakral merosni asrash va ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish.

Xulosa. Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishni hududiy tashkil etish tibbiy-geografik, sanitariya-gigiyenik, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari viloyatda sakral obyektlarning katta hududiy salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. 2024-yilda viloyat sakral obyektlariga 215 ming nafar mahalliy ziyoratchining tashrif buyurgani ushbu hududlarda zamonaviy sanitariya-gigiyena va tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

20 dan ortiq sakral obyektlarda olib borilgan suv va tuproq tadqiqotlari ham sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash hamda suv sifatini muntazam nazorat qilish zarurligini ko‘rsatgan.

Shu sababli Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: sakral obyektlarni pasportlashtirish va inventarizatsiya qilish; ziyoratchilar oqimi yuqori bo‘lgan obyektlarda doimiy tibbiy-sanitariya xizmatlarini tashkil etish; ichimlik suvi manbalarini muntazam laboratoriya nazoratidan o‘tkazish; sanitariya-gigiyena infratuzilmasini takomillashtirish; sakral obyektlarni funksional zonalashtirish; mavsumiy ziyoratgohlarda ko‘chma tibbiy va sanitariya xizmatlarini yo‘lga qo‘yish; har bir sakral obyekt uchun tibbiy-sanitariya yo‘riqnomalarini ishlab chiqish; ziyoratchilar oqimi, sanitariya holati va infratuzilma haqida yagona axborot bazasini yaratish; web-GIS texnologiyalari asosida sakral obyektlarning monitoring tizimini shakllantirish.

Umuman olganda, sakral landshaftlardan xavfsiz va samarali foydalanish ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilish, tabiiy va madaniy merosni asrash hamda ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 843-son “Farg‘ona viloyatining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5326-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4755-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3514-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasida dam olish, kurort-rekreatsion obyektlarni loyihalash va qurishning sanitariya-gigiyenik qoidalari va me’yorlari. SanPiN 0198-06.
7. O‘zbekiston Respublikasida suv obyektlarining ifloslanishining aholi salomatligiga xavfliligini baholash bo‘yicha gigiyenik kriteriyalar. SanPiN 0255-08.
8. O‘zDSt 950:2011. Ichimlik suvi va maishiy maqsadlarda foydalaniladigan suv sifatiga qo‘yiladigan talablar.
9. Farg‘ona viloyatidagi sakral obyektlar bo‘yicha dala tadqiqotlari, kuzatuv va anketa-so‘rovnoma materiallari.

AN’ANAVIY ZIYORAT TURIZMINING TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARI (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Djo‘raboyeva X.Sh. Farg‘ona davlat universiteti, g.f.f.d. (PhD)
Gmail-x.djuraboyeva75@gmail.com
Adhamjonov Sh.K. Farg‘ona davlat universiteti, talaba
Gmail-petervey005@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi transchegaraviy hududlarda shakllangan an'anaviy ziyorat turizmining tarixiy-ekologik ildizlari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur imkoniyatlardan foydalanishning bugungi davrdagi rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *an'ana, ziyoratgoh, ziyorat turizmi, mozorlar, transchegaraviy hududlar, turizm.*

Turizm iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim o‘rin tutadi, transport va savdo, qurilish va oziq-ovqat sanoatlari, hunarmandchilik, mehmonxona va boshqa xizmat turlarini rivojlanishiga olib keladi. Turizm sohasi dunyo